

## TALABA BILIM DARAJASI O'SISH DINAMIKASINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

**Jo'rakulov Tolib Toxirovich**

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada, t'lim jarayonida talaba bilimining o'sish dinamikasi determinirlangan matematik modeli, oddiy differential tenglama ko'rinishida ifodalangan. Yaratilgan modelning hisoblash eksperimenti natijalari grafiklar ko'rinishida keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lism jarayoni, matematik model, bilim hajmi, darajasi, o'sish dinamikasi, unutish koeffitsiyenti, differential tenglama, yechim, sonli metod, hisoblash tajribasi, grafik.

**Kirish.** Ijtimoiy soha obyektlaridan bo'lgan ta'lism tizimining didaktik jarayonlarini boshqarish muammosi va ta'lism jarayonlarini matematik modellashtirish metodlariga bag'ishlangan tadqiqotlar L.P.Leontyev, O.G.Goxman, R.V.Mayyer, N.F.Talizina va boshqalar tomonidan o'rganilgan[1-3]. Bu ishlarda OO'Yularida ta'lism jarayonlarini optimal boshqarishning ba'zi aspektlari qaralgan. Masalan, o'quv rejasini optimal variantini yaratish, o'quv jarayoni axborotlarini hisoblash, berilgan va o'zlashtirilgan o'quv materialini aloqadorligini aniqlash, o'quv materialini kvantlash, ta'li jarayonida teskari aloqa va boshqalar.

Yaratiladigan ochiq didaktik tizimni determinirlangan tizim sifatida hech qanday rivojlanish qonuniyati ma'lum emas. Bu o'rinda tizimli yondoshuvga asoslangan imitatsion modellashtirishning qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir[4]. Demak ta'lism jarayonlari analiz va sintez masalalarining qo'yilishi va ularning yechilish muhim dolzarb ahamiyatga molikdir.

Ta'lism jarayonini optimallashtirishda, ta'lism jarayoni, o'quvchi bilim hajmining oshirilishishi, kabi jarayonlarni modellashtirishga talab kuchayadi. Modellashtirish uzoq va og'ir jarayonli aniq ma'lumotlarni yig'ish uchun, ta'lism jarayoni parametrlerining kerakli qiymatlarini kompyuter modeli yordamida tez va samarali ajratib ishlashga imkoniyat yaratadi.

Ta'lism jarayonlarini modellashtirish masalalariga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, jumladan [5] ishda muxandis intellektining rivojlanishida muhim element sanalgan – emotsiyal kompetentlikka e'tibor qaratilgan. Emotsiya funksiyalarining bajarilishi asosida emotsiyal rivojlanishning

nazariy modeli yaratilgan. Mualiflar tomonidan shaxslararo va ichki emotsiyal kompetensiylar va ijtimoiy malakalarning rivojlanish darajasi ochib berilgan. Texnika oliv o‘quv yurtlari talabalarini kasbiy tayyorlashning modeli komponentalarini takomillashtirish masalasi [6] ishda qaralgan. Ta’lim olish va bilimni boyitish jarayonlarini kompyuterli modellashtirishda bir qancha turli yondoshuvlar bo‘lib, masalan, [7] ishda modellashtirish masalasining yechimi determinirlangan matematik model bilan amalga oshirilib, analistik yechim olingan. Maqola mulliflari modellashtirish natijasida ta’lim jarayoni va o‘quv materialini o‘zlashtirshga ta’sir qiluvchi faktorlarni aniqlashgan. Imitatsion modellashtirishning multiagent imitatsion modeli [8,9] ishlarda esa, o‘ziga xos bo‘lgan yondoshuv bilan qo‘llanilgan. Maqola OO‘YU ta’lim jarayoni multiagent imitatsion modelini yaratishga bag‘ishlangan bo‘lib, ta’lim holatini akslantiruvchi - tuzatish dinamikasi, bilim boyitilishi, ta’lim sifatini tahlil qilish va prognoz qilish masalalarini yechish mumkinligi ko‘rsatilgan. O‘qituvchi va talaba(o‘quvchi)ning psixofiziologik, emotsiyal va kognetiv holatlarini hisobga olgan agentli-yo‘naltirilgan imitatsiya keltirilib, metodlar va algoritmlar dasturiy realizatsiyasi universal Simplex imitatsion tizimda berilgan. Ta’lim jarayoni subyektlarining o‘zaro ta’sirini ifodalovchi matematik model, chekli avtomatlar nazariyasi qoidalari ko‘rinishida [9] ishda qaralgan. Modelning nazariy asosi bo‘lib, gibrid ko‘rinishdagi avtomat model olingan.

Maqolada bilim boyitilishini modelashtirishning vositali sifatida imitatsion modellashtirish elementlarini o‘zida mujassam etgan determinirlangan kompyuterli modelni qo‘llanilishi taklif etiladi. Determinirlangan asosning tarkibiy qismi sifatida matematik modeli differensial tenglama ko‘rinishida keltirilib, yechish algoritmi berilgan. Imitatsion modellashtirish blokida, boyitilgan bilimlar darajasini nazorat qilishni haqiqiy ma’lumotlar va modellashtiriladigan parametrlearning haqiqiy taqsimot qonunlari assosining qism dasturidan foydalaniladi.

Masalaning mohiyati shundang iboratki insonning o‘qishi va bilimi oshishi uzlusiz jarayon sifatida faraz qilinib, matematik modelni yaratish masalasi qaralgan. Ta’lim jarayonida bilim hajmi y uluksiz va monoton o‘zgaradi - bir zumda(kutilmagan)  $dy/dt$  tezlikda ko‘payadi.

Ko‘rinib turibdiki, bilimni ko‘payish tezligi o‘zlashtirilgan o‘quv materiali  $x_i$  kvantiga proporsional diskret ko‘rinishda yoki funksiya  $x(t)$  analog ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shunindek, bilim hajmining oshishiga insonning psixofiziologik xususiyatlari sabab bo‘lib, materialning bir qismi unutiladi, bu esa salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tarqoqlik jarayoni yoki unutish koeffitsiyenti deyiladi. Yig‘ilgan malumotlar bir qismining yo‘qotilishi (unutilishi) barcha insonlarga xos xususiyat bo‘lib, uning miqdoriy birligi har bir talabada o‘ziga xos shaxsiy ko‘rsatkichdir.

Bilimni yo‘qotilishini hisobga olish uchun unutish koeffitsiyenti  $\alpha$  ni kiritamiz. Bu ko‘rsatkich oddiy bo‘lib, umumiy ma’lumot hajmining bir qismi bo‘ladi. U holda umumiy bilim yo‘qotilishini  $\alpha \cdot y$  ko‘paytma bilan ifodalash mumkin.

Demak, umumiy bilim miqdorini hisobga olgan holda murakkab bo‘lmagan quyidagi matematik modelni qurish mumkin:

$$\frac{dy}{dt} = x(t) - \alpha \cdot t \quad (1)$$

bu yerda  $y$  - mayjud bo‘lgan bilim hajmi,  $t$  - vaqt,  $x(t)$  - o‘zlashtirilgan o‘quv materiali,  $\alpha$  - unutish koeffitsiyenti.

O‘zlashtirilgan o‘quv materiali funksiyasi ikkita tarkibni o‘z ichiga oladi: auditoriyadagi dars vaqtida o‘zlashtirilgan o‘quv materiali elementi va mustaqil o‘qish jarayonida o‘zlashtirilgan o‘quv materiali elementi. Ma’lumki o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi har bir talabada individual bo‘lib, turlichadir. Bu faktorni hisobga olish uchun o‘quv materiali elementini o‘zlashtirish darajasi koeffitsiyenti sifatida,  $a$  va  $m$  koeffitsiyenlarni auditoriyada olgan vaqtida va mustaqil ishlab olgan vaqtida koeffitsiyentlar deb kiritamiz. U holda o‘zlashtirilgan o‘quv materiali elementi funksiyasi quyidagi fomula bilan hisoblanishi mumkin:

$$x(t) = a \cdot k_a + m \cdot k \quad (2)$$

bu yerda  $a$  - auditoriya mashg‘uloti vaqtidagi o‘zlashtirish koeffitsiyenti,  $k_a$  - auditoriya darsi vaqtida berilgan o‘quv materiali elementi,  $m$  - mustaqil mashg‘ulot vaqtida o‘rganilgan o‘zlashtirish koeffitsiyenti,  $k_m$  - mustaqil o‘qish vaqtida o‘rganiladigan o‘quv materiali elementi.

Matematik model asosida kompyuter modeli yaratilib, uning yordamida hisoblash tajribasi o‘tkazildi. Kompyuterli model yaratish uchun differensial tenglama ko‘rinishidagi modelni, berilgan boshlang‘ich shart va koeffitsiyentlar qiymatlari kiritilib, analitik usul va sonli usulning Eyler metodidan foydalanildi.

(1) differensial tenglama (2) ni inobatga olib integrallansa

$$y = a \cdot k_a t + m \cdot k_m t - \frac{\alpha}{2} t^2 + c \quad (3)$$

funksional bog‘lanishni beradi.


Tenglamaning Eyler metodi yordamida olingan sonli yechimi algoritmining hisoblash formulasi

$$y_i = y_{i-1} + (a \cdot k_a + m \cdot k_m - \alpha \cdot t) \Delta t . \quad (4)$$

O‘tkazilgan hisoblash tajribalridan olingan natijalar grafik ko‘rinishida keltirilgan (1 - rasm).

Hisoblash tajribasini o‘tkazish vaqtida ta’lim jarayoniga va bilim oshishiga ta’sir qiluvchi faktoralarni baholash mumkin bo‘lib, xususan boshang‘ich bilim darajasi

qiymati  $y_0$  ni berib, bu bilim talabalar tomonidan olingan yoki o'zaro yaqin o'quv fanlari o'quv materialini o'zlashtirib olingan  $a$ ,  $m$ , bilimni unutish koeffitsiyenti  $\alpha$  ni inobatga olib, o'qish natijasini oldindan aytish mumkin. 1- rasmda modellashtirshning (3) va (4) ko'rinishdagi kompyuter modellari yechimlari grafik ko'rinishda keltirilgan.



### 1 – rasm. Bilim hajmi o'shining analitik va sonli modellashtirish natijalari

2 egri chiziq bilim ko'payishi dinamikasini vaqt bo'yicha ko'rsatadi, unutilishni inobatga olgan holda quyidagi qiymatlarda  $y_0=20$ ;  $a=0,8$ ;  $m=0,6$ ;  $\alpha=0,4$ ;  $k_a=60$  1 egri chiziq bilimni o'sish dinamikasini ideal holatda, unutishni hisobga olmagan holda ifodalaydi. 3 egri chiziq o'rganilgan materialni mustaqil takrorlamaslikni modellashtirgan.

Modelda o'lchamsiz vaqt birligi qo'llanilgan bo'lib, birlik sifatida fanni o'qitish uchun ajratilgan vaqt, umumiyligi olingan. Auditoriyada va mustaqil o'rganiladigan o'quv materiali munosabatini 60 ga 40 deb olsak bo'ladi, bu munosabat kunduzi o'qiydigan talabalar fanlari uchun ma'qul bo'ladi. Kunduzgi-sirtqi ta'lim ko'rinishiga bu munosabatni 40 ga 60 olinishi, sirtqi o'qish shakli uchun esa 10 ga 90. Demak 100 imkoniyatdan 20 birlik boshlang'ich bilim darajasiga ega bo'lib, dars mashg'uloti vaqtidagi o'zlashtirish koeffitsiyenti 0,8 va mustaqil ishlaganda o'zlashtirish

koeffitsiyenti 0,6, shuningdek, unutish koeffitsiyenti 0,4 bo‘lsa, fanni bilish darajasi 72 birlik bo‘ladi.


1 egri chiziq o‘quvchi bilimini unutish koeffitsiyenti bo‘lganda o‘sish natijasini ko‘rsatadi. Bu singari ideal sharoitlarda 92 birlik natijaga ham erishish mumkin. Demak unutish natijasida bilimni yo‘qotilishi sezilarli bo‘lgani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3 egri chiziq mustaqil ishlash bo‘lmaganda bilim o‘sishining dinamikasi bo‘lib,  $m=0$ . Demak ma’lumki, mustaqil ishlashni albatta oxirgi natijaga katta ta’siri bor. Mustaqil ta’lim bo‘lmasa, samarali bo‘lgan auditoriya mashg‘uloti ham 60 birlik qoniqarli natijani olish imkoniyatini bermaydi.

Modellashtirshning bu singari natijalari ba’zi sifat ko‘rsatkichlarini olinishi uchun juda foydalidir. O‘quv jarayonining real parametrlaridan foydalanib, modellashtirilsa bu albatta yuqori darajadagi qiziqishga sabab bo‘ladi. Masalan, hisoblashlarda boshlang‘ich bilim hajmining  $y_0 = 20$  birlik deb olinishi biroz yuqoridir. Tabiiyki o‘quv rejasi shunday tuzilganki, ta’lim jarayoni va bilim olish jarayonlari ketma-ketlikda va uzlusiz xarakterda bo‘lishi ta’minlanishi zarur. Ba’zi hollarda bu ko‘rsatkich reallikka yaqin bo‘ldi, masalan matematika mutaxassisligi talabasi uchun differensial tenglamalar kursini o‘qilib, boshlanishida, talabaning matematik tahlil, algebra va analitik geometriya fanlaridan ega bo‘lgan boshlang‘ich bilim darajasi hajmi  $y_0 = 20$  birlikni tashkil qilishi hech qanday shubha tug‘dirmaydi. Informatika o‘qitish metodikasi mutaxassisligi talabasiga dasturlash, (algoritmlar, dasturlash, Java dasturlash tili) ning o‘qitilishida oliy matematika fanidan ega bo‘lgan boshlang‘ich bilim darajasi hajmi  $y_0 = 20$  ko‘rsatkichdan kichi bo‘lishi mumkin.

Modelning asosiy koeffitsiyentlari qiymati, ayrim talabalar uchun individual bo‘lib, uni aniqlash talab qilinadi. Buning uchun kompyuter testlarning o‘tkzilishi maqsadga muvofiqdir. Amalda katta sondagi talabalardan kompyuter testlari o‘tkazilib, natijalar statistik tahlil qilindi. Katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, koeffitsiyentlar qiymatini normal taqsimlangan tasodifiy miqdorlar deyish mumkin. “Dasturlash tillari” fanni o‘qitilishi jarayonida talabalarning bilim darajasining amaliy natijasi 2-rasmda keltirilgan.

Bilim darajasini o‘rganishning tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2/3 talabalarning bilim darajasi 55 – 75 ball diapozonda joylashgan. Ma’lum bo‘ldiki, bilim darajasi taqsimoti o‘rtacha 65 ball tanlash va 15 ball o‘rtacha kvadratik chetlanish bilan normal taqsimot qonuni xarakteriga ega.



## 2 – rasm. Talabalar bilim darajasi amaliy o‘rganilishi natijalari

1 egri chiziq natijasi a’lo bo‘lgan (bilim darajasi 87 balldan yuqori) talabalar bilimining o‘sish dinamikasini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2 egri chiziq o‘rtacha bilim darajadagi talabalar bilim darajasining o‘sish dinamikasi bo‘lib, fanni o‘qitilishining yakuniga borib 70 ballga yaqinlashadi. Bilim darajasi 73 balldan yuqori bo‘lganlar yaxshi deb baholanadi. 3 egri chiziq esa o‘zida oltinchi darajali polinomni mujassam etgan interpolyatsion egri chiziq bo‘lib, o‘zlashtirishi nisbatan past bo‘lgan talabalarning bilim darajasi o‘sishining dinamik tahlili natijasidir.

Bilim hajmi o‘sishining dinamikasini ko‘rsatuvchi 1 va 2 egri chiziqlar, taklif etilayotgan matematik modelni barcha koeffitsiyentlarini hisoblash va shuningdek, imitatsion modellashtirish uchun zarur bo‘lgan statistik baholash imkoniyatlarini beradi.

Imitatsion modellashtirish blokida, testlar natijasida olingan real qiymatlardan modelning boshlang‘ich parametrлари sifatida foydalaniladi. Determinirli model, tasodifiy miqdorlarning normal taqsimot qonuni va unga aloqador taqsimot yordamida stoxastik model bilan to‘ldiriladi.

Imitatsion model katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, xususan modellashtirish yordamida, o‘qitish natijalarini oldindan aytish va reyting tizimi yordamida bilimlar natijalarini baholashni amalga oshirishda foydalidir[10]. Ma’lumki OTMning normativ hujjatlari reyting nazoratining umumiy qoidalarini o‘zida aks ettirib, reyting tizimining har bir fan uchun aniq parametrlari kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi. O‘quv semestri davomiyligini imitatsiya qilib, kompyuter modelidan foydalangan holda yaratilayotgan tizimning barcha parametrlarini tekshirib, uning holatini baholash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot davomida yaratilgan va o‘zida imtatsion modellashtirish elementlarini mujassam etgan kompyuter modeli o‘qish davomida talabalarning bilim egallash jarayonini modellashtirish uchun xizmat qilishi mumkin. Kompyuter modeli yordamida o‘tkazilgan hisoblash tajribasi, ta’lim jarayonini optimallash masalasini yechishda foydali bo‘ladigan bir qator muhim natijalar olish imkonini beradi[11]. Shuningdek, kompyuter modeli ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish tizimlarini yaratishda ham foydali bo‘lishi mumkin. Modelni amaliyotda qo‘llanilishi, avtomatlashtirilgan o‘qitish kompleksining qism tizimi sifatida yo‘lga qo‘yilishi samarali yechimlar olish imkoniyatini yaratadi.

## ADABIYOTLAR

1. Леонтьев Л.П., Гохман О.Г. Проблемы управления учебным процессом: Математические модели. – Рига, 1984. – 239 с.
2. Майер Р.В. Кибернетическая педагогика: Имитационное моделирование процесса обучения. – Глазов: ГГПИ, 2013. – 138 с.
3. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. Издательство Московского государственного университета. – 1975, 342 с.
4. Моисеев Н.Н. Элементы теории оптимальных систем. -М. Наука. 1975. 526 с.
5. Тимофеев О.Н. Теоретическая модель развития эмоционального интеллекта студентов в техническом вузе. // Вестник КГТУ. – 2011. - Вып. 1 – с. 266.
6. Садетдинов Д.Ш., Тагирова З.К. Модель совершенствования профессиональной подготовки студентов технических вузов средствами информационных технологий. // Вестник КГТУ. – 2011. – Вып. 20. - с.341.
7. Зеневич А.М., Жукович С.Я. Подготовка научных кадров высшей квалификации с целью обеспечения инновационного развития экономики: материалы межд. – научн.-практ. конф. / под ред. И.В.Войтова и др. – Мин.: ГУ “БелиСА”, 2006. – с. 146.

8. Ивашкин Ю.А., Назойкин Е.А. Мультиагентное имитационное моделирование процесса накопления знаний. // Программные продукты и системы. – 2011. - № 1.
9. Алисейчик П.А., Вашик К., Кнап Ж. и др. Компьютерные обучающие системы // Интеллектуальные системы. – 2004. -№ 1. с. 5-44.
10. Сувонов О.О. Об одной задачи управления процессами образования. Инфокоммуникационные и вычислительные технологии в науке, технике и образовании. Международная научная конференция. Тезисы докладов. С. 54-57. Тошкент-2004.
11. Сувонов О.О., Журакулов Т.Т. Математическая модель и алгоритм расчета процессов управления повышения квалификации в отраслях. Четырнадцатая Международная Азиатская школа-семинар. Проблемы оптимизации сложных систем. Тезисы докладов. Кыргызская Республика, Иссык-Куль, 2018г. Июнь.